**O‘o‘ri patir (Thief patir)** – Rasmiy emas, maxfiy tarzda o‘tkaziladigan unashtiruv marosimi. "O‘o‘-ri" (o‘o‘ri/yashirin) so‘zi bu tadbirning norasmiy va sir saqlanadigan tabiatini ko‘rsatadi. Patir an’anaviy non turi bo‘lib, u to‘y va marosim dasturxonining timsolidir.

**Patia toi** – O‘o‘ri patirdan farqli o‘laroq, bu rasmiy va ochiq nishonlanadigan unashtiruv to‘yidir. Ikkala oila ham jamoatchilik oldida birlashadi, sovg‘alar almashiniladi.

**Halpa** – Xorazmda an’anaviy bayramlarda qo‘shiq aytib, o‘yin-kulgi ko‘rsatadigan xalq artisti (ko‘-pincha, ayol). Xorazmda boshqa hududlardan farqli ravishda, ayol ijrochilar an’anasi kuchli rivojlangan.

Bu so‘zlarda esa transliteratsiya va izohli tarjimadan foydalanilgan. Chunki ularning ekvivalenti yo‘q [6].

**Dalan** – Secret corridor. Xorazm an’anaviy binolarida "dalon" – ichki va tashqi makon o‘rtasidagi yopiq o‘tish yo‘lagi, ko‘pincha, maxfiy yoki himoyalovchi yo‘lak sifatida qurilgan. Arxitekturaviy jihatdan mahramsizlikni ta’minlash maqsadida loyihalangan [8.]

Bu so‘zda esa ozgina xatolik bor, chunki Xorazmda “dalan” so‘zi uyga kiraverishdagi katta joyni bildiradi. Zamonaviy tilda “hall” deb atalyapti. Demak, biz bu so‘zning ekvivalenti sifatida “hall” so‘zini olishimiz mumkin ekan.

**Xulosa va takliflar.** Madaniyatga oid so‘zlarni to‘g‘ri va aniq tarjima qilish masalasi nafaqat tilshunoslik nuqtayi nazaridan, balki milliy o‘zlikni saqlash jihatidan ham nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Buning sababi shundaki, bunday so‘zlar oddiy lug‘aviy birliklar bo‘lib qolmay, balki bir xalqning ruhini, dunyoqarashini va tarixi davomida shakllangan qadriyatlarini o‘zida mujassam etadi.

Xorazm madaniyati o‘zining boy va serqirra tabiati bilan ajralib turadi. Bu o‘lkaning tili va madaniyati shunchalik o‘ziga xos xususiyatlarga egaki, undagi ko‘plab so‘zlar va iboralar boshqa tillar doirasida mutlaqo yangicha bir olam sifatida namoyon bo‘ladi. Aynan shu o‘ziga xoslik tufayli Xorazm madaniyatiga mansub so‘zlar uchun boshqa tillarda to‘liq va mukammal muqobil ekvivalent toppish, ko‘pincha, juda mushkul, hatto ba’zi hollarda, deyarli imkonsiz vazifaga aylanib qoladi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, har qanday tarixiy yoki madaniy so‘zni tarjima qilishga kirishar ekan, tarjimon, avvalo, o‘sha so‘zning berilgan kontekstda qanday ma’no kasb etayotganini chuqur anglab olishi zarur. Bundan tashqari, u nafaqat so‘zning yuzaki ma’nosini, balki uning barcha qatlamlarini, nozik ma’no ottenkalarini va kontekstdagi vazifasini to‘liq bilgan holda ish yuritishi lozim. Zero, tarjimonning asosiy maqsadi o‘quvchi xayolida asl matnda muallif ko‘zda tutgan tasvirni, his-tuyo‘uni va ruhiy olamni jonli va aniq tarzda gavdalantira olishdan iborat.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**


(1). Кувватова М., Хамрокулова М., Ходжаева S. Madaniyatga oid so‘zlar tarjimasi. Interpretation and Researches, извлечено от https://inlibrary.uz/index.php/international-scientific/article/view/99475, 2025, p. (9(55-2).

(2). https://uz.wikipedia.org/wiki/Realiya_(tarjima)

(3). Ibragimov Ibragim Akhmedovich. The history of ancient Khorezm crafts, journal of international scientific research, Volume 1, Issue 5, October, 2024, p. 296–300.

(4). Matyakubova Shahodat Khamidjanovna. Early medieval Khorezm: socio-economic development and the evolution of urban life, 2025, p. 491.

(5). Matyakubova Shahodat Khamidjanovna. Early medieval Khorezm: socio-economic relations and urbanizations processes. Journal of multidisciplinary science and innovations, 2025, p. 490.

(6). Rano Turaeva. The cultural baggage of Khorezmian identity: traditional forms of singing and dancing in Khorezm and in Tashkent, Central Asian Survey, 2008, p. 143–153.

(7). Usmanova Gulasal Normukhammad Kizi. Establishment of Khorazm dance school. Journal of Modern Educational Achievements, 2023, p. 11.

(8). Javad Shekari Niri. Review of the City of Khiva. Manifestation of Iranian Culture and Civilization in the Region of Khwarezm. Space Ontology International Journal, 2017, p. 41.



**Nashirova Dilnoza Burievna (Qarshi davlat Texnika universiteti)**


## TARJIMA JARAYONIDA YO‘NALMA HARAKAT FE’LLARINING FRAZEOLOGIK EKVIVALENTLARI


***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek tillaridagi yo‘nalma harakat fe’llarining frazeologik ekvivalentlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda go, come, take, bring kabi ingliz fe’llarining o‘zbek tiliga tarjimasida yuzaga keladigan semantik va madaniy transformatsiyalar, ularning frazeologik muqobillari misollar asosida yoritilgan. Maqolada tarjima nazariyasining ekvivalentlik, transformatsiya va pragmatik adaptatsiya tamoyillari asosida tahlillar keltirilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *yo‘nalma harakat fe’llari, frazeologik ekvivalent, semantik transformatsiya, tarjima jarayoni, ekvivalentlik.*

## ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИЕ ЭКВИВАЛЕНТЫ ГЛАГОЛОВ НАПРАВЛЕННОГО ДВИЖЕНИЯ В ПРОЦЕССЕ ПЕРЕВОДА

***Аннотация.*** *В статье рассматриваются фразеологические эквиваленты глаголов направленного движения в английском и узбекском языках. Анализируются семантические и культурные трансформации при переводе глаголов “go”, “come”, “take”, “bring” на узбекский язык. Исследование опирается на принципы теории перевода – эквивалентность, трансформация и прагматическая адаптация.*

***Ключевые слова:*** *глаголы движения, фразеологический эквивалент, семантическая трансформация, процесс перевода, эквивалентность.*

## PHRASEOLOGICAL EQUIVALENTS OF DIRECTIONAL MOTION VERBS IN TRANSLATION

***Annotation.*** *This article analyzes phraseological equivalents of directional motion verbs in English and Uzbek. It explores the semantic and cultural transformations occurring in the translation of verbs such as “go”, “come”, “take”, and “bring”. The study applies translation theory principles of equivalence, transformation, and pragmatic adaptation to demonstrate how phraseological expressions differ across languages.*

***Keywords:*** *directional verbs, phraseological equivalent, semantic transformation, translation process, equivalence.*

**Kirish.** Til – inson tafakkurining eng muhim ifodasi, u orqali inson nafaqat o‘z fikrini, balki dunyoni idrok etish uslubini ham namoyon etadi. Tilshunoslikda ayniqsa harakat va yo‘nalishni bildiruvchi fe’llar alohida semantik toifa sifatida e’tirof etiladi, chunki ular fazoviy, vaqtli va majoziy ma’nolarning kesishgan nuqtasini tashkil etadi. Harakat yo‘nalishini ifodalovchi fe’llar inson faoliyatidagi eng qadimiy semantik kategoriyalardan biri bo‘lib, ular orqali nafaqat jismoniy harakat, balki holat o‘zgarishi, psixologik kechinma, ijtimoiy jarayon ham ifodalanadi. Ingliz tilida “go”, “come”, “bring”, “take” kabi yo‘nalma fe’llar ko‘p ma’nolilik, idiomatik kengayish va frazeologik birliklar hosil qilish xususiyatiga ega. O‘zbek tilida esa “bor-”, “kel-”, “olib kel-”, “chiqib ket-” kabi fe’llar mazkur ma’noni milliy madaniyatga mos tarzda ifodalaydi. Shuning uchun ham ularning frazeologik ekvivalentlarini aniqlash tarjima jarayonida muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Chunki bunday fe’llar har ikki tilda denotativ ma’no bilan birga konnotativ, stilistik va milliy-kulturologik qatlamni ham o‘zida mujassam etadi. Masalan, inglizcha *“go too far”* iborasi so‘zma-so‘z tarjimada “juda uzoqqa bor-” shaklida bo‘lsa-da, aslida “me’yordan oshmoq” ma’nosini bildiradi. Shu bilan birga, *“come to light”*–“fosh bo‘lmoq”, *“go through hard times”* – “og‘ir damlardan o‘tmoq” tarzida frazeologik ekvivalentlar orqali tarjima qilinadi. Demak, yo‘nalma harakat fe’llarining tarjimasi so‘zma-so‘z emas, frazeologik asosda amalga oshirilishi zarur. Bugungi global axborot makonida til va madaniyatlararo muloqotning kuchayishi tarjimonlardan madaniy sezgirlik, semantik moslashuv va frazeologik tafakkurni talab etadi. Shu nuqtai nazardan, yo‘nalma harakat fe’llarining frazeologik ekvivalentlarini o‘rganish tarjima nazariyasi, qiyosiy semantika va lingvokulturologiya uchun dolzarb ilmiy yo‘nalish hisoblanadi. Tadqiqotning obyekti ingliz va o‘zbek tillarida yo‘nalma harakat fe’llari hamda ularning frazeologik birliklar tarkibidagi ishlatilishidir.

Predmeti–mazkur fe’llarning tarjima jarayonidagi semantik va pragmatik o‘zgarishlari, ekvivalentlik darajalari hamda madaniy transformatsiyasi. Maqsad – ingliz va o‘zbek tillaridagi yo‘nalma harakat fe’llarining frazeologik ekvivalentlarini tahlil qilish, ularning tarjima jarayonidagi o‘xshash va farqli jihatlarini aniqlash hamda amaliy tarjimada qo‘llanilish xususiyatlarini yoritishdan iborat.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili** Yo‘nalma harakat fe’llarining tarjima jarayonidagi frazeologik ekvivalentlarini tadqiq etish masalasi xalqaro tilshunoslikda keng o‘rganilgan bo‘lsa-da, ularning madaniy va semantik transformatsiyasiga oid masalalar hanuzgacha dolzarb bo‘lib qolmoqda. Tarjima nazariyasi tarixida bu masala, avvalo, ekvivalentlik tushunchasi bilan chambarchas bog‘langan. J. Catford (1965) esa tarjimada linguistic shift nazariyasini ilgari surib, tarjima jarayonida muqarrar bo‘lgan semantik o‘zgarishlarni tildagi “kategoriya siljishi” sifatida izohlaydi. Catfordga ko‘ra, fe’lning yo‘nalish ma’nosi boshqa tilda grammatik yoki frazeologik vosita orqali ifodalanishi tabiiydir (Catford, A Linguistic Theory of Translation, 1965). Masalan, ingliz tilidagi “go through difficulties” iborasi o‘zbek tilida “sinovdan o‘tmoq” tarzida semantik siljish bilan tarjima qilinadi. Shuningdek, M.Baker (2018) o‘zining “In Other Words” asarida frazeologik birliklarning tarjimasi “linguistic equivalence”dan tashqari “conceptual equivalence”ni ham talab etishini ta’kidlaydi. Unga ko‘ra, bunday birliklarda “til orqali madaniy konseptlar” ifodalanadi. Bu aynan

yo‘nalma fe’llarda yaqqol ko‘zga tashlanadi, chunki “harakat” konsepti turli madaniyatlarda turlicha tasavvur qilinadi – G‘arbda u *progress* va *movement*, Sharqda esa *hayot yo‘li* yoki *taqdir* ramzi sifatida qaraladi. Komissarov esa tarjimani “ikki madaniyat o‘rtasidagi kommunikativ jarayon” sifatida ko‘rib, har bir frazeologik birlikda *madaniy konnotatsiya* yashiringanini qayd etadi (Комиссаров, *Теория перевода*, 1990). Shu bois “go to hell” iborasini o‘zbek tiliga “yo‘qol!” deb tarjima qilish formal jihatdan to‘g‘ri bo‘lsa-da, uning pragmatik kuchi madaniy kontekst orqali belgilanadi. O‘zbek tilshunosligida yo‘nalma harakat fe’llarining semantik va tarjimaviy jihatlarini yorituvchi tadqiqotlar keyingi yillarda faol rivojlanmoqda. S. Karimov (2017) o‘zining “O‘zbek tilida harakat fe’llarining semantik maydoni” nomli tadqiqotida harakat fe’llarini fazoviy, zamoniy va metaforik jihatdan tahlil qilib, ularning milliy dunyoqarashdagi o‘rnini belgilaydi. N.Jo‘rayeva (2020) “Frazeologik birliklarning tarjimada ekvivalentligi” nomli maqolasida ingliz va o‘zbek tillarida idiomalarning semantik-sintaktik transformatsiyasini qiyosiy o‘rganadi. H.Hojimatov (2021) esa “Yo‘nalma fe’llarning kognitiv tabiati” mavzusidagi ishida harakat yo‘nalishi inson tafakkuridagi “harakat – vaqt – hayot” konsepti bilan uzviy bog‘liqligini ta’kidlaydi.

**Tadqiqot metodologiyasi** Tadqiqotning asosiy metodologik yondashuvi qiyosiy-tipologik, semantik tahlil, kontekstual va tarjima transformatsiyalari tahlili metodlariga tayangan. Birinchidan, qiyosiy-tipologik metod orqali ingliz va o‘zbek tillaridagi yo‘nalma harakat fe’llarining (masalan, go, come, arrive, leave va ularning o‘zbekcha ekvivalentlari bor-, kel-, chiq-, ket-) semantik tuzilmalari, morfologik shakllari va frazeologik qo‘llanilishi o‘zaro solishtirildi. Bu yondashuv V.V.Vinay va J.Darbelnet (1958) hamda E. Nida (1964)ning tarjimada ekvivalentlik nazariyalariga tayangan holda amalga oshirildi. Ikkinchidan, semantik va kognitiv tahlil yordamida frazeologik birliklarda harakat yo‘nalishining metaforik va idrokiy modellari tahlil qilindi. Masalan, ingliz tilidagi go down in flames yoki come to light kabi frazeologizmlar o‘zbek tilida to‘g‘ridan to‘g‘ri tarjima qilinmay, barbod bo‘lmoq, oshkora bo‘lmoq kabi ma’no jihatdan ekvivalent birliklar bilan ifodalanadi. Uchinchidan, kontekstual tahlil orqali frazeologik birliklarning qo‘llanish vaziyatlari, ularning sintaktik moslashuvi va pragmatik funksiyalari aniqlanib, tarjimada ularning stilistik ekvivalentini topish tamoyillari tahlil qilindi.

**Tahlil va natijalar.** Yo‘nalma harakat fe’llari til tizimida nafaqat harakatni bildiruvchi grammatik birlik sifatida, balki milliy tafakkur va madaniy tasavvurni ifodalovchi semantik kategoriyadir. Ingliz va o‘zbek tillaridagi yo‘nalma harakat fe’llarining frazeologik birikmalarda qo‘llanilishi ularning kognitiv asoslarini ochib beradi hamda tarjima jarayonida semantik moslik va pragmatik ekvivalentlik muammolarini yuzaga keltiradi. Tadqiqot davomida ingliz tilidagi *go, come, get, run, move, turn, fall, rise* kabi yo‘nalma fe’llar ishtirokidagi 100 dan ortiq frazeologik birlik tahlil qilindi. Ularning o‘zbek tilidagi ekvivalentlari quyidagi semantik asoslar bo‘yicha tasniflandi:

| **Inglizcha frazeologik birlik** | **So‘zma-so‘z tarjima** | **O‘zbekcha ekvivalent** | **Izoh** |
|---|---|---|---|
| *Go through fire and water* | Olov va suvdan o‘tmoq | Har qanday sinovdan o‘tmoq | Yo‘nalish orqali qat’iyat ifodasi |
| *Come to light* | Yorug‘likka kelmoq | Oshkora bo‘lmoq | Harakat yo‘nalishi → metaforik ochilish |
| *Go down in flames* | Yong‘inda pastga tushmoq | Barbod bo‘lmoq | Harakat → natija metaforasi |
| *Come a long way* | Uzoq yo‘l bosmoq | Katta yutuqlarga erishmoq | Harakat → rivojlanish metaforasi |
| *Go out of one’s way* | O‘z yo‘lidan chiqmoq | Qo‘lidan kelgancha harakat qilmoq | Harakat → ijtimoiy kuchayish |

Bu tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ingliz tilida yo‘nalma fe’llar semantik jihatdan metaforik kengayish orqali harakatdan tashqari hissiy, ijtimoiy yoki kognitiv ma’nolarni ifodalaydi. O‘zbek tilida esa ekvivalentlar ko‘proq semantik umumlashma asosida hosil bo‘ladi (“barbod bo‘lmoq”, “oshkora bo‘lmoq” kabi). Mona Baker (2018) ta’kidlaganidek, “idiomatic equivalence depends on the translator’s ability to interpret the cultural and conceptual motivations behind idioms”, ya’ni, frazeologik ekvivalentlik tarjimonning madaniy va kognitiv asosni anglash darajasiga bog‘liq. Frazeologik birliklarni tarjima qilishda ko‘pincha semantik o‘zgartirishlar (transpozitsiya, modifikatsiya, kengaytirish yoki qisqartirish) zarur bo‘ladi. Misol tariqasida quyidagi tarjimalarni ko‘rib chiqamiz: He went out of his way to help me.

So‘zma-so‘z: “U menga yordam berish uchun yo‘lidan chiqdi”. Tarjima: U menga yordam berish uchun bor kuchini sarfladi.

Bu yerda ingliz tilidagi “yo‘ldan chiqmoq” frazeologik metaforasi o‘zbek tilida “bor kuchini sarflamoq” semantik transformatsiyasi orqali ekvivalentlashtirilgan.

Come to an end→“Tugamoq” Bu birikmada come harakati fizik yaqinlashuv emas, jarayonning yakunlanishini bildiruvchi metafora sifatida qo‘llanadi. Shu bois tarjimada u tugamoq kabi semantik jihatdan mos, lekin grammatik jihatdan farqli fe’l bilan almashtiriladi. Go up in smoke → “Puchga chiqmoq”.

Bu ibora ingliz tilida natijasiz yakunlanishni ifodalasa, o‘zbek tilidagi “puchga chiqmoq” frazeologik jihatdan aniq ekvivalent bo‘lib, madaniy-konseptual moslikni ta’minlaydi. Bu misollar shuni ko‘rsatadiki, tarjimada literal (so‘zma-so‘z) ekvivalent topish deyarli imkonsiz; tarjimon konseptual ekvivalentlik tamoyiliga asoslanishi lozim. Yo‘nalma harakat fe’llari ishtirokidagi frazeologizmlar milliy madaniyatdagi fazoviy idrok va yo‘nalish metaforalari bilan chambarchas bog‘liq. Masalan: Ingliz tilida go up → “ko‘tarilish”, go down →“pasayish” semantikasi, ko‘pincha, ijtimoiy yoki hissiy holatni ifodalaydi (prices go up, spirits go down). O‘zbek tilida esa bu jarayonlar ko‘tarilmoq, tushmoq so‘zlari orqali ifodalanib, sodda sintaktik struktura, lekin boy semantik konnotatsiyaga ega bo‘ladi. Yo‘nalma harakat fe’llari frazeologik tizimda metaforik, pragmatik va madaniy ma’nolarni tashuvchi asosiy birliklardan biridir. Ingliz va o‘zbek tillari o‘rtasidagi semantik tafovutlar tarjimada konseptual ekvivalentlikni ta’minlashni talab etadi. Tarjimon uchun muhim vazifa – frazeologik birlikning tashqi shakliga emas, balki ichki ma’no maydoniga e’tibor qaratishdir. Kognitiv va madaniy yondashuv yo‘nalma fe’llarning frazeologik tarjimasida eng samarali metod hisoblanadi.

**Xulosa va takliflar**. Yo‘nalma harakat fe’llari ishtirokidagi frazeologik birliklar ingliz tilida metaforik kengayish orqali, o‘zbek tilida esa semantik umumlashma orqali hosil bo‘ladi. Bu ikki yondashuv har bir tilning dunyoqarashi va madaniy tajribasiga tayanadi. Frazeologik birliklar tarjimasida so‘zma-so‘z ekvivalent topish deyarli mumkin emas; tarjimon kontekstual va konseptual ekvivalentlik tamoyillariga amal qilishi zarur. Tarjima jarayonida semantik transformatsiyalar, masalan, transpozitsiya, generalizatsiya, ekvivalent almashtirish kabi usullar frazeologik ekvivalentlikni ta’minlashda eng samarali yondashuvlar bo‘lib chiqdi. Tadqiqot davomida ingliz tilidagi go, come, get, turn, fall kabi yo‘nalma fe’llarning o‘zbek tilidagi bor-, kel-, chiq-, ket-, tush- kabi ekvivalentlari frazeologik tizimda mazmuniy moslashuv orqali ifodalanishini ko‘rsatdi. Tarjima jarayonida yo‘nalma harakat fe’llari ishtirokidagi frazeologik birliklarni tahlil qilishda korpus lingvistikasidan keng foydalanish tavsiya etiladi. Bu frazeologik birliklarning kontekstual chastotasini aniqroq o‘lchash imkonini beradi. Yo‘nalma harakat fe’llari asosida shakllangan frazeologizmlarning ikki tilli (ingliz-o‘zbek) izohli lug‘atini yaratish zarur. Bu tarjimonlar, tilshunoslar va talabalarga katta amaliy yordam beradi. Tadqiqot natijalari ingliz va o‘zbek tillaridagi yo‘nalma harakat fe’llarining frazeologik tizimini qiyosiy o‘rganish orqali semantik tipologiya, kognitiv semantika va tarjima ekvivalentligi masalalariga yangicha ilmiy yondashuv taklif etadi. Bu esa til o‘rganish, tarjima metodikasi va lingvokulturologiya yo‘nalishlarida muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

(1). Baker M. (2018). In Other Words: A Coursebook on Translation. 3rd edition. London & New York, Routledge.

(2). Nida E.A. (1964). Toward a Science of Translating: With Special Reference to Principles and Procedures Involved in Bible Translating. Leiden, E.J.Brill.

(3). Vinay J.-P., Darbelnet J. (1958). Stylistique comparée du français et de l’anglais: Méthode de traduction. Paris: Didier.

(4). Newmark P. (1988). A Textbook of Translation. London, Prentice Hall.

(5). Fillmore C.J. (1982). Frame Semantics. In Linguistics in the Morning Calm (pp. 111–137). Seoul: Hanshin.

(6). Кунин А.В. (1970). Курс фразеологии современного английского языка. Москва, “Высшая школа”.

(7). Бархударов Л.С. (1975). Язык и перевод (Вопросы общей и частной теории перевода). Москва, “Международные отношения”.

(8). Halliday M.A.K. (1994). An Introduction to Functional Grammar. 2nd edition. London, Edward Arnold.

(9). Lakoff G., Johnson M. (1980). Metaphors We Live By. Chicago: University of Chicago Press.

(10). Комиссаров В.Н. (1990). Теория перевода (лингвистические аспекты). Москва, “Высшая школа”.

(11). Qo‘chqorov A. (2019). Tilshunoslik va tarjima nazariyasining asosiy tushunchalari. Toshkent, “Fan va texnologiya”.

(12). Sodiqova M. (2021). Frazeologizmlarning madaniy-semantik tahlili va ularning tarjima muammolari. Toshkent, O‘zMU nashriyoti.